



ERTAK JANRINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi

Buxoro Davlat Tibbiyot instituti
Ingliz tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5651335>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-oktabr 2021
Ma'qullandi: 25- oktabr 2021
Chop etildi: 30- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Ertak, parilar, xayoliy, sehrli elementlar, ziddiyat, tarbiyaviy.

ANNOTATSIYA

Ertaklarning yosh o'quvchining bilimlarini bir necha jihatdan boyitish jarayoniga o'z hissasini qo'shishi haqiqatdir. Ular hayotning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi eng universal jihatlar va me'yorlarni aks ettiruvchi axloqiy va qadriyatlarni o'rgatishi mumkin. Bundan tashqari, ertaklar ma'lum bir matn turiga aylanadi va u bolaning yoshi jihatidan moslashtirilishi mumkin, holbuki ularning jumalari va syujeti tarkibi sodda va tushunarli bo'ladi.

O'zlikni tadqiq va namoyon etuvchi yorqin vositalardan biri –millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oinai hayoti uning tili va adabiyotidir! (Avloniy, 1999).

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri bo'lib, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asardir, ya'ni u asosan, nasr shaklida yaratilgan.

Bizning hayotimizda adabiyot muhim o'rin tutadi. Ertaklar bolalar adabiyotining bir qismi sifatida chet tilini o'qitish uchun qimmatli manba bo'lishi mumkin. Ertaklar nafaqat juda noyob va qimmatli sir-sinoat, hayajon va hayrat muhitini yaratadi, balki ular yosh o'quvchini butunlay sehrli va sirli dunyoga olib kirishi mumkin. Ular insoniyatning unutilgan ko'p asrlik donoligi va bilimlarini aks ettirishi mumkin. Adabiyot hamda ertaklar kuchli

hissiyotlarni jumbushga keltiruvchi ajoyib manba vazifasini o'taydi (Lazar, 1993).

Ertaklar bir necha usullar orqali yosh o'quvchining bilimlarini boyitishga yordam berishi mumkin. Ular eng universal til mezonlarini ta'kidlaydilar hamda axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni o'rgatadilar. Bunga qo'shimcha ravishda, ertaklar ma'lum bir matn turi hisoblanib, bolaning yoshiga moslashtirilishi mumkin, shu bilan birga ularning jumla tarkibi va syujeti sodda va tushunarli ifodalanadi.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan



kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi. O'tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchilik kurashi o'zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan.

"Ertak" tushunchasini adabiyotshunos hamda tilshunoslar tomonidan turlicha tavsiflanadi:

Ertak - bu parilar, goblinlar, knyazlar va malika kabi folklor xususiyatlarini o'z ichiga olgan ixcham hikoyadir. Ertaklar xalq ijodining kichik sinfidir. Eng qadimgi ertaklar og'zaki tarzda hikoya qilinib yozib olingunga qadar nasldan naslga o'tib keldi. Ushbu hikoyalar yaxshilab o'rganilganda shuni ko'rsatdiki, bir ertakning bir nechta, hatto 10 dan ortiq versiyalari mavjud ekan. Har bir ertakning o'ziga xos hikoya qilish usuli va madaniy elementlari bor mavjud hisoblamadi. Bu omil ko'p holarda voqea aytilgan joy va vaqtga bog'liq. Bugungi kunda turli mualliflar hali ham ertaklarning yangi versiyalarini ixtiro qilish va yozishni yoqtirishadi (Hallett & Karasek, 2009; Tiberghien 2007).

Hayot haqiqat bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deyiladi (Ahmedov S. va b. 2011).

Avzalovning fikricha, ertak janri ham folklorning janri kabi ijtimoiy-hayotiy, sosal-siyosiy mundarijaga ega to'la yoki qisman badiiy fantaziyadan foydalanish orqali uzoq asrlardan buyon xalq kurashi orzu-umidi

intilishlari bilan bog'liq holda yashab kelayotgan xalqimizning ma'naviy yo'ldoshidir (Avzalov, 1998).

Ertaklarning o'ziga xos umumiy elementlari mavjud. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- parilarni kiritish shart emas.
- o'tmishda - odatda ancha ilgari bo'lib o'tgan voqealarni o'zida aks ettiradi. Balki o'tmishdagi tarixiy haqiqat sifatida taqdim etilgan.
- xayoliy, g'ayritabiiy yoki aql bovar qilmas jihatlarini o'zida mujassam etadi.
- hayot haqiqatiga aylangan yaxshilik va yomonlikni o'z ichiga oladi.
- sehrli elementlar, jumladan, sehrli odamlar, hayvonlar yoki narsalarni bayon etadi. Sehrgarlik ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.
- uch hamda undan ortiq narsalar, odamlar yoki hodisalarni o'z ichiga olishi mumkin.
- syujetni mavjud bo'lgan muammo yoki ziddiyatni hal qilishga qaratadi.
- mavjud bo'lgan ziddiyat yoki muammolar odilona qarorga asoslangan holda ko'pincha baxtli tugashlarga ega bo'ladi.
- jamiyat uchun muhim bo'lgan madaniyat va qadriyatlarni namoyish etadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqib tinglaydigan va o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy tarzda tasvirlanadi, asar qahramonlari hayvonlar bo'lsa-da, voqealar odamlar turmushi kabi kechadi. Hayvonlar haqidagi ertak personajlari — bo'ri, tulki, sher, turli parranda va hasharotlar xuddi odamlarday harakat qiladilar, gapiradilar. Agar e'tibor bersangiz, bunday xislatlar hayvonlarda deyarli yo'q. Bo'ri, tulki yoki boshqa bir hayvon o'z o'ljasini qo'lga kiritish uchun epchil, chapdast, ziyrak bo'lishi mumkin, biroq ayyorlik, tilyog'lamalik, chaqimchilik qila



olmaydi. Bu ko'proq hayvonlar vositasida majoziy mazmun — insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatish uchun o'ziga xos uslub. Xalqimizda birovning salbiy qiligi, muomalasi hamisha ham yuziga aytilmaydi, aniqrog'i, birovning aybini ko'rsatib tanbeh berishdan ko'ra, uni yomon odatlardan ogoh etish, qaytarish millatimizga xos xususiyatdir (Eshmurodova; 2014).

Ertaklarning tarbiyaviy jihatdan o'rni beqiyosdir. Chunki ular bolalarni sog'lom muhitda o'sib unishlari uchun imkoniyat yaratib beradi va to'g'ri yo'lga boshlaydi. Shu o'rinda ertaklar haqida V.G.Gusev tomonidan bildirilgan fikrlarni eslatish muhim. Uning fikricha, "Jamiyatda, umuman inson tabiatidagi illatlar real hayotda aksini topmagach, fantastik tarzda ertaklarda o'z yechimiga ega bo'ladi".

Butun dunyo bo'ylab odamlar yangi ertaklarni ixtiro qilishda va an'anaviy ertaklarni takrorlashda davom etadilar.

Umuman olganda, odamlar haqiqat yolg'ondan ustun bo'lgan, saxiylik mukofotlanadigan, to'siqlarni mehnat va muhabbat yengadigan, yovuzlik va rahmshafqat va mehr-oqibat ustidan g'alaba qozongan eng buyuk kuch bo'lgan hikoyaning jozibasidan zavqlanishadi.

Barcha ertaklarda yaxshi xislatlarga ega bo'lgan qahramonlar mavjud bo'ladi, ular mukammal bo'lishi shart emas, ammo o'quvchiga yoqishi kerak. Siz ko'plab "yaxshi" qahramonlar haqida o'ylashingiz mumkin bo'ladi – Zumrad, Tohir, Alpomish va boshqalar; har qanday ertak haqida fikr yuritsangiz "yaxshi" belgini aniqlay olishingiz kerak. Ijobiy xarakterdagi ertak qahramonlari, odatda yosh, ko'pincha kambag'al va yolg'iz, baxtsiz, kamtar va beg'ubor bo'lishadi. Ular odatda hurmatga sazovor bo'lib, kuch va baxtga erishish uchun o'zlarida kuch va jasoratni topa oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. AhmedovS., QosimovB., Qo'chqorovR., RizayevSh. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik). Ilqism. – T.: Sharq, 2011-yil, 107-108-betlar.
2. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Шарқ, 1999 йил. 23-бет
3. Avzalov M. Ertak janri // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1998, 4-son, 16-15bet
4. Eshmurodova O. (2014). ERTAK VA MASAL JANRIDAGI ASARLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.
5. Hallett, M., & Karasek, B. (2009). *Folk and Fairy Tales, Fourth Edition: An Introductory Anthology*. Canada, Toronto: Broadview Press.
6. Kindersley, D. (1998). *Illustrated Oxford Dictionary*. London: Oxford University Press.
6. Kready, L. F. (1916). *A Study of Fairy Tales*. Boston: Houghton Mifflin.
7. Tiberghien, S. M (2007). *One Year to a Writing Class: Twelve Lessons to Deepen Every Writers' Art and Craft*. New York: Marlowe & Company.